

NAQSHBANDSHUNOS OLIMA TADQIQOTLARI.

*Teshayeva Yulduz Hakim qizi.
BuxDU tayanch doktoranti.
Tel: +998947297712, email: yulduzteshayeva@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada BuxMTI Ijtimoiy fanlar kafedrası professori Gulchehra Navro'zova Ne'matovnaning ilmiy tadqiqotlari tahlili va Bahouddin Naqshband falsafasi haqida, uni inson kamolotidagi o'rni masalasida ustoz olima izlanishlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ma'rifat, kamolot, naqshbandiya, xojagon, falsafa, tasavvuf ta'limoti, tolerantlik, hikmatlar, diniy-irfoniy manbaalar, ma'naviy meros, barkamol inson, uvaysiy ta'lim.

Mustaqillik sharofati bilan inson, uning kamoloti, ilmu-ma'rifati, qadriyatlargaga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Bu orada tarixiy xotira, uning yoshlar kelajagida dastur bo'ladigan ma'naviy merosimizni qayta tiklash masalasi dolzarb mavzuga aylandi. Xususan, diniy-irfoniy, falsafiy adabiyotlarning tarjima etilib yangidan nashr etilayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi tasavvuf ta'limoti va uning tariqatlari namoyondalari tomonidan yaratilgan qo'lyozma va toshbosma manbaalarning keng kitobxonlar ommasiga taqdim etilayotganligi fidoiy va jonkuyar olim va olimalarimizning mashaqqatli mehnatlari samarasidir.

Alisher Navoiy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Fariduddin Attor, Bohouddin Naqshband asarlarining qayta nashr etilishi shular jumlasidandir. Bahouddin Naqshbandning "Dil ba yoru, dast ba kor" shiori asosida yaratilgan naqshbandiya ta'limoti hamda Bahouddin Naqshbandning ilmiy merosidan bahramand bo'lish baxtiga muyassar bo'ldik. Bu borada faylasuf olima, naqshbandshunos ustozimiz falsafa fanlari doktori, prosessor Gulchehra Navro'zova mehnatlarini alohida ta'kidlash lozim. Ayni damda ustoz Bux MTI Ijtimoiy fanlar kafedrasida ilmiy faoliyatlarini davom ettirib, shogirdlariga o'z saboqlarini berib kelmoqdalar.

Navro'zova Gulchehra Ne'matovna – falsafa fanlari doktori, professor, 1952-yil 23-mart kuni buxoro shahrida tug'ilganlar. 1969-yilda Buxoro shahridagi 10-sod o'rta maktabini oltin medal bilan, 1974-yilda Buxoro Davlat pedagogika institute tarix-geografiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatganlar. U kishi o'z mehnat faoliyatini Buxoro shahridagi 14-umumta'lim maktabida o'qituvchi lavozimida boshlab 1981-yilda Bux O'ova ESTI falsafa kafedrasining assisenti, 1984-yildan kata o'qituvchi lavozimida ishlaganlar. 1990-yil 27- fevralda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olganlar.

1991-yildan boshlab Gulchehra Ne'matovna "Falsafa" kafedrası dotsenti lavozimida ishlaganlar. Bundan tashqari 7 yil davomida, ya'ni 1969-2002-yillarda institut rektorining

ma’naviy-marifiy ishlar bo'yicha prorektori lavozimida ham faoliyat ko'rsatganlar. Bu yillar davomida respublika miqyosidagi "Qizlar davrasi" tanlovi, "Qo'shiq bayrami", "Universiada-2002" sport musobaqalarida ma'naviy ma'rifiy jabhadagi tashkilotchilik ishlarini namunali tashkil etganlar. 2001-2005-yillarda "Falsafa" va 2005-2010-yillarda "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining mudiri lavozimida ishlaganlar.

2002-yil 17-oktabrda O'zR FA I.M.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq institute ixtisoslashgan kengashida "Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan 2003-yil 12-iyunda Navro'zova Gulchehra Ne'matovnaga falsafa fanlari doktori ilmiy darajasi berilgan.

Ilmiy va pedagogikn faoliyatlari davrida Gulchehra Navro'zovaning jami 200dan ortiq ilmiy va uslubiy ishlari chop qilingana. Bu ishlar orasida olimaning 7 ta monografiyalari, 7 ta risolalari va 1 ta patent muallifi ekanliklari alohida diqqatga sazovordir. G.Navro'zova bir qator xalqaro anjumanlarda ham qatnashgan bo'lib, mazkur anjumanlar to'plamlari va xorijiy jurnallarda u kishining 10dan ortiq, Respublika jurnallari va ilmiy-nazariy konferensiyalar to'plamlarida 150 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etilgan. Bular orasidan 30 ga yaqini G.Navro'zovaning o'quv uslubiy ishlari bo'lib, ulardan to hozirgi kunga qadar o'quv jarayonida foydalananib kelinmoqda.

O'z faoliyatlari davomida G.Navro'zova fan va texnologiyalar qo'mitasining bir qator tanlovlarida qatnashib, davlat grantini yutib olishga muvaffaq bo'lганlar. Jumladan, olima rahbarligida 2003-2005-yillarda 5mln. so'm mablag' miqdoridagi 3.21 PNIL "Milliy istiqlol g'oyasi o'quv kursini o'qitish hamda monitoringini olib borishning komputerlashgan texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi davlat granti muvaffaqiyatli yakunlandi. Shuningdek G.Navro'zova kafedra mudiri sifatida faoliyat ko'rsatgan yillarda O'zR FA "Falsafa va huquq" instituti va Respublikadagi bir qator oliy o'quv yurtlari bilan ilmiy va uslubiy hamkorlikni yo'lga qo'yganlar. Respublika miqyosidagi "Ibrohim Mo'minov falsafiy o'qishlari" seminari(2003), 2006-2010-yillarda o'tqazilgan "Yoshlarda tolerantlikni yuksaltirish – fuqarolik jamiyatini kurash omili" shiori ostida o'tqazilgan konferensiyalarda rahbarlik qildilar.

Bahouddin Naqshband ma'naviy merosini biz kelajak avlodga yetqazish borasida naqshbandshunos ustozimiz falsafa fanlari doktori, professor Gulchehra Navro'zova mehnatlarini alohida ta'kidlash lozim. Ustozning Naqshband hayoti va faoliyatini aks ettirgan, naqshbandiya ta'limoti asoslarini ko'rsatuvchi muhim manbaalar sifatida tavsiya etish mumkin bo'lgan bebeaho asarlar yaratganliklari bu zahmatkash insonning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissalarining bir uchquni xolos. Ayniqsa Bahouddin Naqshband qalamiga mansub "Avrod"⁸ asarining tarjimasi, olimaning ilmiy izlanishlari samarasi bo'lgan. Ustoz bundan tashqari Naqshband hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan qator asarlar yaratganlar. Shular jumlasiga "Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va

⁸ Buxoro nashriyoti, 2002 y, 60-bet.

barkamol inson tarbiyasi"⁹, "Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi"¹⁰, "Naqshbandiya - kamolot yo'li"¹¹, "Sayyid Amir Kulol" hamda shogirdlari falsafa fanlari nomzodi Xolida Rahmatova bilan hamkorlikda yozilgan "Naqshbandiya tushunchalari genezisi" nomli monografiyalari va boshqa shunga o'xshash risolalarini kiritishimiz mumkin.

"Naqshbandiya tushunchalari genezisi" asarida G.Navro'zova Bahouddin Naqshband tarjimai holidan kamolotigacha bo'lган davri, ta'limoti, naqshbandiyaga oid manbaalar sharhi, muhim tasavvufiy tushunchalar tahlili kabi mavzularni tahlil etganlar. Yana bir muhim jihat shundaki bu asarda olima ilk marotaba muomalaga kiritilayotgan nodir qo'lyozmalar tarjimasi asosida noyob hikmatlarni sharhlab bergenlar. Bular: Salohiddin ibn Muborak al-Buxoriy qalamiga mansub "Anis at-tolibin", Abul muhsin Muhammad Boqir bin Muhammad Ali qalamiga mansub "Maqomoti Hazrat Xoja Naqshband", Xoja Muhammad Porso qalamiga mansub "Risolayi qudsiya" va Bahouddin Naqshband qalamiga mansub "Kanz al ibod fi sharh al-Avrod" asarlari asosidagi tahlillardir.

Asarsa yoshlar tarbiyasi uchun bebaho durdona sifatida Xojai Jahon, Bahouddin Naqshbandlarning ajoyib o'gitlaridan berilgan. Xususan inson hayotida vaqtning bebaho xazina ekanligini ta'kidlagan holda Abdulxoliq G'ijduvoniyning quyidagi hikmatlari diqqatga sazovordir: "Vaqt – qilich kabi keskirdir har bandaki har bir soatini hayotidan kesadi. Uni qaytib qo'lga kirta olmaydi. Vaqt ni aziz deb saqlang va uning odobini joyiga qo'ying..." Xojai Jahon umrni - urug'ga, yerni – odamga o'xshatadi. Odam umrni qanday o'tqazsa, urug'ni shunday ekkan bo'ladi. Har bir aytadigan so'zimizni, qiladigan amalimizning oqibatini o'yashimiz lozim. Oqibatni Xojai Jahon "ma'no", "mohiyat" deb qaraydi. Bu haqda mo'tabar so'fiyning quyidagi ruboysi ibratdir:

Dilning shodligi jondan yaxshiroqdir desang,
Oqibatni andesha qilishing undan yaxshiroqdir desang,
Oqibat – bu, aqlning mohiyat haqidagi o'ylovidir,
Nafas olar ekansan, oqibat haqida saboq olgin"¹²

Olimaning asarda dastlab G'ijduvoniy hikmatlaridan namuna berishda ham ramziy ma'no bor. Bu o'z navbatida Bahouddin Naqshbandning ma'naviy ustozlari bo'lgan va uvaysiy ta'lim bergen piri komilga hurmat belgisidir.

Yana shuni ta'kidlash joizki Gulchehra Ne'matovna Navro'zova samarali ilmiy faoliyatlari uchun 2004 yil 28-yanvarda Antique World xalqaro ilmiy akademiyasi tomonidan "Akademik" unvoni berilgan edi. 2009-yilda esa O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan professor ilmiy unvoni tasdiqlangan. Gulchehra Navro'zova doimiy ravishda institut, fakultet, kafedra tomonidan o'tqaziladigan tadbirlarda qatnashib jamoa hurmatiga sazovor bo'lib kelganliklari tufayli, nafaqaga chiqqanliklariga qaramay, o'z

⁹ Fan nashriyoti, 2005 y, 238-bet.

¹⁰ Falsafa va huquq, 2006 y, 136-bet.

¹¹ Fan nashriyoti, 2007 y, 194-bet.

¹² Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband. Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009y. – B. 106.

ustlarida tinimsiz ishlab, Buxoroyi sharif yoshlarining ilmiy salohiyati va pedagogik mahoratini oshirish, mustaqil fikrlovchi kadrlarni yetishtirishda o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dissertantning Pulatova M.I bilan 2024-yil 15-iyundagi suhbati asosida.
2. www.ziyo.uz
3. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т. Шарқ, 2000, 336-б.
4. Юсупов Э.Ю. Переход к социализму минуя капитализм. М., 1987, с.170.
5. Аминова Р.Х. История совхозов Узбекистана 1917-1960. Т., 1993, с. 22,33.
6. Бухоро вилоят давлат архиви, 9-фонд, 2-рўйхат, 21-йифма жилд, 13-15 варак; 151-фонд, 2-рўйхат, 141,214-йигма жилд, 19, 24 варак.
7. Ўзбекистон тарихи (1917-1991), Т., ФАН, 2019, 517-б.